

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar  
2025- yil yanvar-mart

	<i>Mrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Istemol tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi	2 341,8	109,0
Xizmatlar, jami		
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) <sup>1)</sup>		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

\* Ishlab chiqarish

## VII. ISTE'MOL BOZORI



### Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2025- yil yanvar-mart)

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 691 tani tashkil etib, 2024- yil 1- aprelga nisbatan 192 taga ko'paygan (o'sish sur'ati 105,5 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan. Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 341,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan 9,0 % ga oshgan. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 150,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 122,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 517,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,9 %), savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tovar aylanmasi 673,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,5 %) tashkil etdi.

#### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari

O'sish sur'ati, % da

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi




Ulushi, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 6,4 %, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari 64,8 %, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi 28,8 % ni tashkil qildi.


**Chakana savdo aylanmasi** – aholiga shaxsiy, oilaviy, maishiy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shu kabi foydalanish uchun sotilgan tovarlarning qiymati hisoblanadi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o‘shish sur‘ati dinamikasi (2025- yil yanvar-mart)



So‘nggi 5 yillikda (2021-2025- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘shish sur‘ati 2022- yilda kuzatildi. Bu davrda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil qildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasi oylar kesimida (2025- yil yanvar-mart)



2025- yilning yanvar-mart oyida chakana savdo tovar aylanmasi 2 341,8 mlrd so‘mni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga o‘tdi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

(2025- yil yanvar-mart)



2025- yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hissasiga to'g'ri keldi va 28,3 % ni tashkil etdi, Zomin tumani 11,9 % ni, Baxmal tumani 11,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumani 2,8 %, Mirzacho'l tumani 2,6 % ni va Yangiobod tumani 1,5 % bilan eng kam ulushga ega bo'ldi.

## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari, % da

(2025- yil yanvar-mart)


Yirik korxonalarining tovar aylanmasi 150,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 122,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 517,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 673,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,5 %) tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar,  
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
hajmi va o'sish sur'atlari, % da  
(2025- yil yanvar-mart)**

	<i>Jami mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 341,8</b>	<b>109,0</b>	<b>150,9</b>	<b>122,2</b>	<b>2 190,9</b>	<b>108,2</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax sh	628,7	111,8	40,5	97,9	588,2	112,9
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	69,0	105,9	0,9	151,8	68,1	105,5
Baxmal	257,4	110,3	8,2	678,3	249,2	107,3
G'allaorol	198,0	109,1	3,1	40,1	194,9	112,1
Sharof Rashidov	222,8	109,5	1,5	40,8	221,3	110,8
Do'stlik	114,4	109,1	0,8	137,9	113,6	109,0
Zomin	264,0	102,9	54,0	134,9	210,0	96,9
Zarbdor	122,1	107,2	1,0	151,2	121,1	107,0
Zafarobod	63,2	108,4	0,6	141,3	62,6	108,0
Mirzacho'l	58,1	106,2	6,9	1 853,7	51,2	94,4
Paxtakor	110,5	108,0	0,7	141,1	109,8	107,8
Forish	81,8	113,1	3,9	718,8	77,9	108,3
Yangiobod	32,6	108,2	0,6	210,3	32,0	107,4

*\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

## Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan % hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>2 341,8</b>	<b>109,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	150,9	122,2	6,4
kichik tadbirkorlik	488,1	120,1	20,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	1 029,7	100,4	44,0
Uyushmagan savdo	673,1	113,5	28,8


## 2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd so‘m*	2024- yilyanvar- martiga nisbatan % hisobida	ming so‘m	2024- yilyanvar- martiga nisbatan % hisobida
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 341,8</b>	<b>109,0</b>	<b>1 519,8</b>	<b>106,9</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax shahar	628,7	111,8	3 137,1	109,5
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	69,0	105,9	1 392,9	104,4
Baxmal	257,4	110,3	1 474,3	107,9
G‘allaorol	198,0	109,1	1 036,8	107,0
Sharof Rashidov	222,8	109,5	892,2	106,9
Do‘stlik	114,4	109,1	1 610,9	107,7
Zomin	264,0	102,9	1 431,1	100,4
Zarbdor	122,1	107,2	1 263,5	105,2
Zafarobod	63,2	108,4	1 157,6	106,8
Mirzacho‘l	58,1	106,2	1 030,9	104,5
Paxtakor	110,5	108,0	1 339,8	106,2
Forish	81,8	113,1	819,2	111,6
Yangiobod	32,6	108,2	1 079,4	106,8

\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Viloyat chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘sish sur‘ati yuqori hududlar Forish (111,6 %), Jizzax shahri (109,5 %) va Baxmal (107,9 %) tumanlarida qayd etildi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari




Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 341,8 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,0 % ni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 108,2 % ga o‘shish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va yirik korxonalar o‘shish sur‘ati 122,2 % ni tashkil qildi.



Viloyatning aksariyat hududlarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax shahri (112,9 %), G‘allaorol (112,1 %), Sharof Rashidov (110,8 %), Do‘stlik (109,0 %), Forish (108,3 %) tumanlarida nisbatan yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘atlari Zomin (96,9 %) va Mirzacho‘l tumanlarida (94,4 %) kuzatildi.




**2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**

*Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 %ni va hajmi 150,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,4 % ulushiga to'g'ri keldi.

*Yirik korxonalar*



*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*



*Eng past ulushga ega hududlar, % da*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob- kitoblarga ko'ra 2 190,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,2 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.


*Yirik korxonalar*



*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*




**Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari  
tovar aylanmasi mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati, % da  
(2025- yil yanvar-mart)**



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (42,0 mlrd so‘m), Sharof Rashidov (17,7 mlrd so‘m), Zomin (12,5 mlrd so‘m) hamda Paxtakor (4,0 mlrd so‘m) tumanlarida, eng past ko‘rsatkich esa Yangiobod (1,1 mlrd so‘m), Forish (0,9 mlrd so‘m) va Arnasoy (0,2 mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Jamiga nisbatan % da	2024- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida
<b>Jizzax viloyati *</b>	<b>1 287,2</b>	<b>100,0</b>	<b>112,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	42,0	44,3	112,8
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	0,2	0,2	110,1
Baxmal	2,7	2,8	104,9
G‘allaorol	5,3	5,6	112,0
Sharof Rashidov	17,7	18,7	112,6
Do‘stlik	2,6	2,7	114,4
Zomin	12,5	13,2	91,3
Zarbdor	3,0	3,2	108,0
Zafarobod	1,6	1,7	115,8
Mirzacho‘l	1,2	1,3	109,1
Paxtakor	4,0	4,2	110,4
Forish	0,9	0,9	107,0
Yangiobod	1,1	1,2	103,8

*Eng yuqori hajmga ega hududlar*



Jizzax shahri 44,3 mlrd so‘m  
Sh.Rashidov 18,7 mlrd so‘m  
Zomin t. 13,2 mlrd so‘m

*\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

## 2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 168,9 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 108,4 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 83,6 mlrd so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 4,9 martani tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 1 085,3 mlrd so‘mga yetdi va o‘shish sur‘ati 105,4 % ni tashkil etib, umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 92,9 % ni tashkil qildi.

	<i>Hajmi, (mlrd so‘m)*</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan % da</i>
<b>Jizzax viloyati *</b>	<b>1 168,9</b>	<b>100,0</b>	<b>111,6</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	613,9	56,8	108,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	31,3	2,9	96,0
Baxmal	8,6	0,8	107,0
G‘allaorol	37,7	3,5	160,2
Sharof Rashidov	249,5	23,1	99,6
Do‘stlik	23,5	2,2	103,5
Zomin	67,6	6,3	424,3
Zarbdor	20,7	1,9	101,7
Zafarobod	3,0	0,3	101,1
Mirzacho‘l	7,1	0,7	105,5
Paxtakor	7,3	0,7	101,0
Forish	5,3	0,5	101,4
Yangiobod	3,1	0,3	98,8

*\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*


Ulgurji tovar aylanmasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlarini Zomin (4,2 m.), G‘allaorol (160,2 %) tumanlari va Jizzax shahri (108,4 %) da kuzatildi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yirik va kichik biznes korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi

2025- yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 83,6 mlrd soʻmni (oʻsish surʼati 4,9 m.), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi 1 085,3 mlrd soʻmni (oʻsish surʼati 105,4 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd soʻm</i>	<i>2024- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd soʻm</i>	<i>2024- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd soʻm</i>	<i>2024- yil yanvar-mart oyiga nisbatan, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 168,9</b>	<b>111,6</b>	<b>83,6</b>	<b>4,9 m.</b>	<b>1 085,3</b>	<b>105,4</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	613,9	108,4	11,0	81,7	602,9	109,0
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	31,3	96,0	0,1	7,8 m.	31,2	95,8
Baxmal	8,6	107,0	0,1	112,5	8,5	107,0
Gʻallaorol	37,7	160,2	14,0	8,3 m.	23,7	108,3
Sharof Rashidov	249,5	99,6	0,4	4,8 m.	249,1	99,4
Doʻstlik	23,5	103,5	0,1	2,1 m.	23,4	103,3
Zomin	67,6	4,2 m.	50,8	12 870,9 m.	16,8	105,6
Zarbdor	20,7	101,7	0,2	11,1	20,5	100,9
Zafarobod	3,0	101,1	-	9,1	3,0	104,1
Mirzachoʻl	7,1	105,5	0,1	114,9	7,0	105,4
Paxtakor	7,3	101,0	0,2	148,5	7,1	99,9
Forish	5,3	101,4	0,1	62,8	5,2	102,1
Yangiobod	3,1	98,8	-	3,9 m.	3,1	97,7

## Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (56,8 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (23,1 %) va Zomin (6,3 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Paxtakor (0,7 %), Forish (0,5 %), Yangiobod (0,3 %) hamda Zafarobod (0,3 %) tumanlari esa eng kam ulushga ega bo'ldi.

Shundan, yuqori hajmlar Jizzax shahrida (613,9 mlrd so'm), Sharof Rashidov (249,5 mlrd so'm), Zomin (67,6 mlrd so'm), G'allaorol (37,7 mlrd so'm) hamda Arnasoy (31,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd qilingan.